

=====  
**MUQIMIY HAJVIYALARIDA DAVR IJTIMOY VOQELIGINING BADIY TALQINI**  
 =====

**Yahyoyeva Dildora Baxtiyor qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti*

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 07.06.2026*

*Revised: 08.06.2026*

*Accepted: 09.06.2026*

**KALIT SO‘ZLAR:**

*Muqimiy, hajviyot, satira, ijtimoiy voqelik, badiiy talqin, ijtimoiy tengsizlik, kapitalistik munosabatlar, tanqidiy realizm, hajviy obrazlar, davr muammolari.*

*Mazkur maqolada Muqimiy hajviy asarlarida XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ijtimoiy voqelikning badiiy talqini tahlil qilinadi. Shoirning “Maskovchi boy ta’rifida”, “Urug’”, “To’y”, “Tanobchilar” kabi hajviy asarlarida jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik, boy va kambag‘al qatlamlar o‘rtasidagi ziddiyatlar, kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi hamda insoniy qadriyatlarning yemirilishi satirik ruhda aks ettirilgani yoritiladi. Muqimiy hajviyoti misolida davr muammolarining badiiy ifodasi va shoirning tanqidiy-realistik mahorati, hajviyotdagi beqiyos o‘rni ochib beriladi.*

Muhammad Aminxo‘ja – Muqimiy lirik shoir va zabardast hajvchi sifatida XIX asrning so‘nggi choragi va XX asr boshlaridagi o‘zbek milliy adabiyotining eng yirik namoyandasi sifatida dong taratdi. Muqimiy lirik shoir sifatida qanchalik mashhur bo‘lsa, kuchli satirik sifatida ham shunchalik bo‘la oldi. Shoirning turli janrlardagi lirik she‘rlari singari “Darig‘o mulkimiz”, “Hajvi Bekturboy”, “Dar mardumi Oqjar batariqi muxammas”, “Dar mazammati zamona”, “Ho‘qandlik bir boyning sha’niga Muqimiy shoirning aytgon she‘ridur”, “Urug’”, “Veksil”, “Dar mazammati qurbaqa”, “Sayohatnoma”, “To’y” kabi ko‘plab ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi hajviy asarlari shular jumlasidandir.

Olim **A.Abdug‘afurov** o‘zining **“Muqimiy satirasi”** nomli kitobida “Muqimiyning ijodi chin ma’noda xalqchildir – u ezilgan mehnatkash omma, xonavayron qishloq dehqonlarining sodiq vakili, oddiy inson his-tuyg‘ularining asl kuychisi bo‘lib maydonga chiqdi: shoir shu xalqchilik pozitsiyasidan ularning alamli qorong‘u hayotini, dard-u tashvishini, orzu-intilishlarini, realistik bo‘yoqlarda yuksak badiiylik bilan ifodaladi, yorqin turmush, “yaxshi zamon” keladi, - deya bashorat qildi” deganida haq edi [1].

Mehnatkash xalqimizning ikki tomonlama zulm ostidagi ayanchli ahvoli, inson huquqining toptalishi, adolatsizlik, qishloq dehqonlarining “och-yalong‘och” turmushi va azob-uqubatli mehnati, kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi, din arboblarning

faoliyatidagi buzilishlar, illatlarning avj olishi (o'g'rilik, hiylakorlik, maishiy buzuqlik) kabi jihatlar Muqimiyning satiristik g'azal, muxammas, masnaviylarida, yuksak badiiy mahorat bilan aniq va haqqoniy o'z ifodasini topdi. Shoir o'sha paytda jamiyatimizdagi hukmron mavqedagi guruh vakillarining tipik namoyandalari bo'lmish salbiy-satirik obrazlarning katta galereyasini yaratdi. Sulton Ali Xo'ja va Hakimjonlar, Hodixo'ja va axloqiy buzuq Ashurboy hojilar, tovlamachi Viktor va Lyaxtinlar, xasis gumashta va poraxo'r mingboshi, ellikboshilar, Asrorqul va "murdor avliyo", "shayton bachchag'ar" din arboblari shoirning qalami ostida qaytadan "tug'ildilar", razil basharalari, puch mohiyatlari butun qabohati bilan ko'rsatildi.

**"Tanobchilar"**, **"Voqeai ko'r Ashurboy hoji"** kabi satirik asarlarda ijtimoiy-siyosiy masala – jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, tabaqalanish, hukmron adolatsizlik, inson tengligi, insoniy huquq kabi masalalar yaqqol ifodalanadi. Yoki saylov mavzusini olsak, Muqimiy, bu masalaning tub mohiyatini to'g'ri anglab, uning birinchi satirik tahlilini ko'rsatdi, ya'ni **"Saylov"** satirasi bilan adabiyotimizda bu mavzuning keyinchalik (Zavqiy, Hamza) yanada chuqur va o'tkir ishlanishiga yo'l ochdi.

Muqimiy jamiyatning ikki qutbga ajralganligini, unda ijtimoiy tengsizlik hukm surishini ko'ra oldi, o'zi yashab ijod etayotgan hayotda boylar va kambag'allar, to'qlar va ochlar, katta yer egalari va bechora dehqonlar, zavod-fabrika egalari va ular qo'lida ishlovchilar mavjudligini angladi hamda asarlarida aks ettirdi. Bu o'rinda zavod egasi "maskovchi boy" Hodixo'ja va uning korxonasidagi ishchilar haqidagi misralarni eslash kifoya.

**"Maskovchi boy ta'rifida"** satirasi bu jihatdan, ayniqsa, xarakterlidir. Shoir bu asarida ham aniq bir tarixiy sharoit, real voqelik "pishirib bergan" mavzuni tanqidiy-satirik usulda tahlil etadi. Muqimiy bu satirasida kapitalistik munosabatlarning doimiy yo'ldoshi – raqobat va sinishni Hodixo'ja eshon nomli kichik kapitalistning "sinishi" misolida ishonarli tasvirlaydi. Hodixo'ja satirada maqtanchoq, ahmoq, pul va boylikning quli, hiylakor, zolim, sudxo'r, axloqiy jihatdan buzuq shaxs sifatida gavdalanadi. Unda tuzumga xos barcha salbiy belgilar mujassamlashgan. Shoir bu asarida zavod egalari, fabrikantlar muomalasi asosida avvalo, kapital yotishini, foyda masalasi birinchida ekanligini, ularning o'rtasidagi obro' va mavqe kapitalning hajmi bilan belgilanishini hayotiy qilib haqqoniy ko'rsatadi. Hodixo'janing "singan"ini eshitgan kapitalist va bank egalari unga mol va kredit berishni to'xtatib qo'yadilar, bergan qarzlarni tezroq undirib olish payiga tushadilar. Mol keltirish uchun Moskvaga ketgan ukasi Poshshoxo'ja quruq qaytib keladi – va'daga mol berishmaydi, hamkasblar o'rtasida Hodixo'jaga ishonch yo'qoladi:

Chunonchi xo'jam Poshshoxo'jani  
 Chu Maskov yuborgan bilan mol qani?!  
 "Fabrikantlar va'daga molini  
 Berishmay", - dedi yig'lab ahvolini  
 Borib mol uchun, mol ololmay kelish  
 Yomon, ahli tujjorga mushkul ish.

Hodixo‘ja qurayotgan zavodini ham bitkaza olmaydi, savdo ishlarida ketma-ket zarbaga uchraydi, oqibatda olgan katta qarzlarini to‘lashdan ojiz bo‘lib qoladi. O‘z mavqeyini saqlab qolishga qanchalik urinmasin, natija chiqara olmaydi, hovlilari sotiladi, mol-u mulki musodara qilinadi, oilasi buziladi. Voqealarni izchillik bilan tasvirlar ekan, shoir bu kapitalistning “fojiali” taqdiriga zarracha ham achinmaydi, aksincha, muallif munosabatida qoralash, zaharxandalik seziladi. Ushbu satirada bulardan tashqari, katta ahamiyatga ega bo‘lgan yana bir epizod ham bor. Muqimiy o‘zbek adabiyoti tarixida birinchi bo‘lib zavod-fabrika va korxonalarda paydo bo‘la boshlagan ishchilarning og‘ir hayoti va faoliyatini bu asarida qisqa bo‘lsa-da, hayotiy tasvirlashga muvaffaq bo‘lgan.

Muqimiy Hodixo‘janing ijtimoiy ahvoli, faoliyatidan tashqari, uning shaxsiy hayotini, oilaviy turmushini ham tasvir qiladi, shu orqali uning psixologiyasini, xulq-atvori va xarakterini ko‘rsatishga erishadi.

Muqimiy tasvirida Hodixo‘ja, avvalo o‘z boyligiga mag‘rur bo‘lgan takkabbur shaxs. U o‘zini hammadan ulug‘ va ustun hisoblaydi. Rastalarda oq katta sallani o‘rab, kekkayib ot ustida yurganda odamlar uni, “alloma”, “shayx” deb gumon qoladilar. U xalq ko‘ziga pok ko‘rinadi-yu, haqiqatda axloqiy jihatdan shubhali kishi. U oilaviy hayotda ham jirkanch qiyofaga ega. Davlat kuchi bilan, “siymzar to‘kib” go‘rkov qiziga uylangan, lekin erdan yolchimagan go‘rkov qizi ham dodga keladi:

Dedi oh urib: - “Bo‘lsa er holi bu!”

Fig‘onidin el ichra tushti g‘ulu.

- “Darig‘oki, baxtim qaro bo‘lmasa,

Senga tushmas erdim, Xudo urmasa!”

Chiqib ichlarida nihon qotishib,

Bazo‘r qo‘ydi hamsoyalar bosishib.

Muqimiy merosida mavzu jihatidan “Maskovchi boy ta‘rifida” satirasiga yaqin “**Urug‘**” radifli g‘azali mavjud. Unda ham kapitalistik munosabatlarning domiy yo‘ldoshi – “sinish” haqida so‘z boradi. Agar Hodixo‘ja eshon misolida sanoatdagi raqobat, “sinish”lar ko‘rsatilgan bo‘lsa, ushbu g‘azalda paxtachilikdagi aynan shu hodisa tilga olinadi.

Nonini bultur yegan, poylagan erdi alar,

Hayf kuyub aqchasi qildi chu axgar urug‘...

Kingaki, o‘tkazsalar va‘daga olganiga,

Nasyaga ham olmayin, ertasi qaytar urug‘.

Xirmoni sarmoyasin bodi zararga berib,

Bir necha boyvachchani qildi qalandar urug‘.

Bu asar shoir ijodining chuqur ijtimoiylik xarakterini belgilash jihatidan ham qimmatlidir.

Muqimiyning tojikcha she‘rlari orasida “**Tuxmi garm**” (Pishgan tuxum)<sup>25</sup> satirasi ham mavjuddir. Asarda tuxum sotish va sotib olish bilan shug‘ullanib kelgan mayda

<sup>25</sup> Erkinov S., Sobirov O. Muqimiy hayoti va ijodini o‘rganishda ba‘zi qo‘shimcha materiallar//Sharq yulduzi – T.: 1961. – B. – 140.

=====  
savdogarlarning tajang ahvollari haqida soʻz boradi. Bozorda tuxum ancha chaqqon boʻlgani uchun savdogarlar juda koʻpayib ketadi. Buning ustiga bir yil tasodifan bozorlarga tuxum juda koʻp chiqib, koʻplar “sinishadi”. Muqimiy satirada ana shu voqea ustidan kuladi:

Mekunan dar jon gʻamash har roʻz on Shokir qaro,  
Aksari savdogaronro kard hayron tuxmi garm.  
(Shokir qaro har kun yurakda (tuxum) gʻami chekadi,  
Pishgan tuxum koʻpchilik savdogarlarni hayron qildi).

Muqimiy bu tuxum voqeasi savdogarlar boshiga kulfatlar soldi, xalq ham bozor-oʻchar qilolmay, oʻz molini sotolmay azob seli ichida qoldi, deb kinoya, achinish bilan yozadi.

Ijodkorning yana bir davr voqeliklarini yorqin aks ettiruvchi satiralaridan biri – “Toʻy” satirasidir. Voqea Toshkentlik boy savdogarning Qoʻqonning Iqon mahallasida istiqomat qiluvchi gumashtasiga xatna toʻyini oʻtkazishiga ruxsat bermay “sim qoqishi”dan boshlanadi. Bundan koʻrinadi-ki, gumashtalar oʻz xoʻjayinlariga faqat moddiy jihatdangina emas, balki maʼnaviy jihatdan ham qaramdir. Asarning ilk misralaridanoq boyning oʻta xasisligi, birovga manfaat yetkazmay, aksincha, manfaat olishi va oʻz gumashtasini ham shunga chorlashi koʻrinadi. Eʼtiborlisi, gumashtaning oʻzi ham egasi singari xasis, u kabi pulga sajda qiluvchilardan. Shuning uchun ham xoʻjayinining toʻyni man etishidan shod boʻladi, talablarini mamnunlik bilan qabul qiladi. Ammo asarga koʻra, gumashtaning xotini esa toʻyni oʻtkazish tarafdori, oradagi konflikt ham mohirona tasvirlanadi:

Ushbu mazmunda sim qoqdi xoʻjayin,  
Shod boʻlub er, xotin dedi: “Oʻlayin!”

Shunda gumashta xotinning raʼyiga ham, xoʻjayinning talabiga ham qarab ish bajaradi: “nochor”, “yolgʻondin” toʻy qiladi. Bundan xotin ham xursand, xoʻjayini ham: koʻp pul sarflanmaganidan, katta chiqim boʻlmaganidan. Chunki boy xoʻjayin, aslida toʻyni oʻtkazishga qarshi emasdi, shunchaki pul sarf boʻlishiga, katta chiqimga qarshi edi.

Xizmatkor toʻyni yashirin oʻtkazadi, hammaning bilib qolishidan vahimada boʻladi. Mana shu jihatini olim A.Abugʻafurov quyidagicha yoritadi: “Uning hamtovoqlari bilan birga “sekin bozorga chiqishlari”, soʻyilgan “oriq qoʻyning goʻsht ila yogʻini xumga bosishlari”, “oyoq uchida kallaga yetgudek gurunch va yogʻ olib kelishlari”, “is chiqarmasdan oshni damlashlari”ning tasviri satirik shoirning katta badiiy kashfiyotlari jumlasidan boʻlib, oʻrnatilgan qattiq tartibga ishora etadi, marosimning maxfiy oʻtayotganligini nihoyatda real chizadi.

Xulosa qilib aytganda, Muqimiy hajviy asarlarida davr ijtimoiy voqeligining badiiy talqini muhim oʻrin tutadi. Shoir oʻz zamonasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni teran kuzatib, ularni badiiy umumlashtirish asosida tasvirilaydi. Natijada uning asarlari nafaqat badiiy-estetik, balki tarixiy-maʼrifiy ahamiyatga ham ega boʻladi. Muqimiy hajviyoti orqali XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi jamiyat hayoti, undagi ziddiyatlar va muammolar haqida muhim tasavvurlar hosil qilish mumkin.

=====

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Abdug'afurov A. Muqimiy satirasi. O'zbekiston SSR "Fan". T.:1976. - B.-3
2. Erkinov S., Sobirov O. Muqimiy hayoti va ijodini o'rganishda ba'zi qo'shimcha materiallar//Sharq yulduzi – T.: 1961. – B.-140.
3. Karimov G'. Muqimiy. Hayoti va ijodi. – T.: G'afur G'ulom, 1970. – B.-193
4. Pardayev Q. Muqimiy she'riyati: matn tarixi, tahriri va talqini. – T:Muharrir, 2019
5. Shomaqsudov A.Sh. Muqimiy satirasining tili. T.:1970. - B.-98
6. [www.google.uz](http://www.google.uz)
7. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)
8. [www.unilibrary.uz](http://www.unilibrary.uz)